

**AKADEMIK OLIMA – XADICHA SULAYMONOVA ILK O‘ZBEK
HUQUQSHUNOS AYOLI**

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi
Xakimxo‘jayeva Sevdokamol qizi
sevdokamolxojayeva@gamil.com*

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola O‘zbekistonda huquqshunoslik fanining shakllanishi va rivojida muhim o‘rin tutgan ilk o‘zbek huquqshunos ayol — Xadicha Sulaymonovaning hayoti, ilmiy merosi hamda ijtimoiy-huquqiy faoliyatini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Olimaning yuridik ta‘lim, ayniqsa, sud-huquq, Adliya tizimidagi faoliyati, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan tashabbuslari hamda ayollarning ilm-fan va huquq sohasidagi faolligini oshirish borasidagi faoliyati ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: huquqshunos, jinoyat, doktorlik dissertatsiyasi, xotin-qizlar huquqi, sud-eskpartizasi, xalq sudyasi.

Аннотация: Данная научная статья посвящена анализу жизни, научного наследия и общественно-правовой деятельности первой узбекской женщины-юриста Хадичи Сулаймоновой, сыгравшей важную роль в становлении и развитии юридической науки в Узбекистане. На основе научных источников освещаются её деятельность в сфере юридического образования, особенно в судебно-правовой и системе органов юстиции, инициативы, направленные на повышение правосознания и правовой культуры, а также вклад в активизацию участия женщин в науке и правовой сфере.

Ключевые слова: юрист, преступление, докторская диссертация, права женщин, судебная экспертиза, народный судья.

Abstract: This scientific article is devoted to the analysis of the life, scientific heritage and socio-legal activities of Khadicha Sulaymonova, the first Uzbek woman lawyer who played an important role in the formation and development of legal science in Uzbekistan. Based on scientific sources, the article highlights her activities in legal education, especially in the judicial and legal sphere and the justice system, her initiatives aimed at raising legal awareness and legal culture, as well as her contribution to increasing the participation of women in science and the legal field.

Keywords: lawyer, crime, doctoral dissertation, women’s rights, forensic examination, people’s judge.

Xadicha Sulaymonova — o‘zbek huquqshunoslik tarixida alohida o‘rin tutgan, milliy yuridik fan taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan yetuk olim, professor,

akademik, davlat va jamoat arbobidir. U o‘z faoliyati bilan nafaqat huquqshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borish, balki jamiyatda ayollarning ilm-fan va davlat boshqaruvidagi o‘rnini mustahkamlash yo‘lida muhim tarixiy qadamlar tashlagan shaxs sifatida e‘tirof etiladi. U o‘zining sermahsul ilmiy izlanishlari, va ijtimoiy faoliyati orqali huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilgan. Ayniqsa, o‘z davrida ayol olim sifatida huquqshunoslik sohasida yetakchi mavqega erishgani uning shaxsiy jasorati va yuksak intellektual salohiyatidan dalolat beradi. Xadicha Sulaymonova 1913-yil Andijonda tavallud topgan bo‘lib, uning hayoti sovet davriga to‘g‘ri keladi. U o‘z faoliyatini Sovet qurilishi va huquqi institutini bitirib 22 yoshida xalq sudyasi lavozimiga tayinlangan kundan boshlanib, keyinchalik O‘zbekiston SSR Oliy sud raisi, Adliya Vaziri, Yuridik fanlar doktori, professor hamda akademik darajasidagi unvonlarga sazovor bo‘ladi.

Dastlabki talabalik yillaridanoq professor ustozlar nazariga tusha boshlaydi. Chunki ilmga chanqoqligi, zehni o‘tkirligi va undan adolatli sudya chiqishiga ko‘zi yetib ishongan ustozlar Xadicha Sulaymonova haqida iliq fikrlar aytib o‘tadi. Jumladan, Yakov Yefimovich Pesin uning aspirantlik davrlarini eslab shunday deb yozadi: “Bu kamtar, istarasi issiq qiz o‘zining xushmuomilaligi, o‘qishga, o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi bilan hammamizga yoqib qolgan edi. Uning ilmiy rahbari bo‘lib tanilgan olim, SSR Fanlar akademiyasining muxbir-a‘zosi, yuridik fanlar doktori, professor A.I.Tarynin edi. Xadicha Sulaymonova Moskva yuridik institutida falsafa, davlat va huquq nazariyasi, jinoyat huquqi ixtisosi, shuningdek, chet tillari bo‘yicha barcha nomzodlik dissertatsiyalarini a‘lo baholarga topshiradi.”¹

Ilmiy faoliyati davomida Toshkent davlat yuridik institutida jinoyat huquqi kafedrasini mudiri lavozimiga tayinlanadi. Shu davr mobaynida SSR Oliy ta‘lim ministrligi oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dotsentlik unvoni beriladi. Shu bilan birga, 1948-1950-yillarda Xadicha Sulaymonova doktoranturada o‘qidi va 2 yil davomida doktorlik dissertatsiyasini yozadi. Uning mavzusi asosida bir necha ilmiy maqolalar chop etilgan, jumladan, “O‘zbekiston sovet jinoyat qonunining vujudga kelishi”, “O‘zbekiston SSRda sovet sudlarining tashkil topish tarixi”.² Ilmiy izlanishlari natijasida 1954-yil “O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” faxriy unvoniga sazovor bo‘lgani va 1956-yil oktyabrida O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zolariga saylanganligi bilan yuridik fanni rivojlantirishda muhim bosqichga qadam qo‘yadi.

Hammamizga ma‘lumki, 1937-yil SSRda “katta qatag‘on” davri bo‘lib, bu davrda millionlab begunoh insonlar qurbon bo‘ldi. Akmal Ikromov va Fayzulla Xo‘jayev ham bu qatag‘on qurbonlari edi. Ularni himoya qilish maqsadida Nuriddin

¹ Xadicha Sulaymonova – huquqshunos, olim, davlat arbobi/ M.Hakimov, F.Ahmedov, A.Saidov. –

T.:O‘zbekiston,1993-y. – 24-b

² Uch mashhur o‘zbek ayoli. Sudyalar Oliy Kengashi. – Toshkent: 2022-yil. – 24-b

Muhiddinov va Xadicha Sulaymonova SSR Bosh prokuraturasiga borib, Bosh prokuror Rudenko bilan bahslashib qatag'on qurbonlarining ishini ko'rishadi. Natijada, Xadicha Sulaymonovanning bildirgan asosli fikrlari, qonunlarni ustalik bilan qo'llay olganligi natijasida g'alaba qozonadi va ularning nomi tarixda abadiy oqlanadi. Hattoki Rudenko ham Xadicha Sulaymonovanning ilm-u , zehniga qoyil qoladi va unga qarata: "Lekin men mana bu qizimizga qoyil qoldim, bunchalik chuqur bilimga ega o'zbek qiziga tan berdim. Shuncha insonlar orasidan chiqib, SSR Bosh prokuroridan Tahsin eshitish qanchalik baxt,"- deya aytadi. Shundan so'ng ikki o'zbekning nomi ham qolgan 40 mingga yaqin soxta ayblar qo'yilib, otuvga hukm qilingan yoki surgun qilinganlar nomi bilan birga oqlanadi. Bunda qahramonimiz Xadicha Sulaymonovanning hissalar juda ulkan edi.

O'zini har jabhada ko'rsatib, natijaga erishgan Xadicha Sulaymonova Nuriddin Muhiddinov tavsiyasi bilan Adliya vaziri nomzodligiga tavsiya etiladi. U 1956-yil sentabr oyidan boshlab rasman Adliya vazirligi lavozimida ish boshlagan. Vazirlikka lavozimga kelish ham oson bo'lmadi, chunki o'sha davrda biror bir lavozimga kirish uchun nomzodning qilgan tashabbuslari, sadoqat bilan yillar davomida ishlagani emas, balki partiyaga a'zoliqi tekshirar edi. Shunday bo'lishiga qaramasdan ikkinchi urinishda partiyaga a'zo bo'lib, so'ng Yustitsiya vaziri bo'ladi. Kollegiyada hamjihatlikni ta'minlashga harakat qildi, qaror qabul qilishda barchaning fikr-mulohazalarini tingladi. Umuman olganda, o'z vazifasini a'lo darajada bajardi. Vazirlik faoliyati davomida juda ko'p ilmiy va amaliy ishlar bajarildi. Unga ko'ra, sotsialistik mulkni o'g'irlash, transport avariya, bezorilik, nafaqa undirish va boshqalar yuzasidan moddiy va protsessual huquq normalarini to'g'ri qo'llanish bilan bog'liq bo'lgan nazariy masalalar hal qilindi. U qonuniy bilimlarni oshirish maqsadida seminarlar, treninglar va ma'ruzalar tashkil etdi. Bu tadbirlarda sudyalarga, advokatlarga va boshqa huquqiy mutaxassislarga zamonaviy huquqiy nazariyalar va amaliyotlar haqida ma'lumot berildi, shuningdek, sud jarayonlarini yanada shaffof va ochiq qilishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surdi. Xadicha Sulaymonova sudlarga nisbatan jamoatchilik ishonchini oshirish uchun xalq bilan bevosita muloqot o'rnatishni muhim deb bilardi. Buning uchun u jamoatchilik bilan uchrashuvlar o'tkazib, ularning fikr va takliflarini tingladi. Xalq sudlari ishining sifatini oshirishda Xadicha Sulaymonovanning hissasi alohida e'tirof etildi. Uning rahbarligida amalga oshirilgan islohotlar natijasida sudyalarning professional saviyasi ko'tarildi, qonunlarni qo'llashda aniqlik va adolat ta'minlandi. Shu bilan birga, u jinoyatchilikka qarshi kurashishda ham samarali choralarni ko'rishga intilib, jamiyatda huquq-tartibotni mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqdi. Xadicha Sulaymonova o'z faoliyatida har doim inson huquqlarini hurmat qilishni, adolatni ta'minlashni birinchi o'rinda qo'ygan holda harakat qildi.

Bugungi kunda Xadicha Sulaymonova nomi bilan Adliya vazirligi huzurida Sud-ekspertizasi markazi faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, akademik huquqshunos sharafiga Toshkent shahri markaziy ko‘chalariga nom berildi. Toshkent davlat yuridik universitetida “Xadicha Sulaymonova nomidagi stipendiya” ta’sis etildi. Bu yaratilayotgan imkoniyatlar , nafaqat bugungi kun, balki ertangi kun yoshlari uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlardan biridir. Xadicha Sulaymonova hayoti va faoliyatini o‘rganish, uni targ‘ib etish talabalarning huquqshunoslik sohasida qanday fazilatlarga ega bo‘lish kerakligini haqiqiy adolatli sudya timsolida namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xadicha Sulaymonova – huquqshunos, olim, davlat arbobi/ M.Hakimov, F.Ahmedov, A.Saidov. – T.:O‘zbekiston,1993-y. – 151-b
2. Uch mashhur o‘zbek ayoli. Sudyalari Oliy Kengashi. – Toshkent: 2022-yil. – 215-b